

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|-----|
| N.U.Nurmatova | |
| Yusuf Hamadoniy- tasavvuf ta'limotining yirik namoyandasi, mutasavvuf olim | 428 |
| S.Q.Qaxxorova | |
| Yoshlar ma'naviy salohiyatini oshirish ularni Vatanparvarlik ruxida tarbiyalash istiqbollari..... | 432 |
| A.E.To'Iqinov | |
| Janubiy Farg'ona kanali suvining tabiiy-geografik tavsifi | 437 |
| Sh.T.Abbosova | |
| Yurtimiz taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlashda milliy g'oya strategiyasining istiqbollari | 442 |
| М.Мирзарахим | |
| Роль педагогических стратегий в интеграции искусственного интеллекта..... | 448 |
| B.A.Talapov | |
| Yangi O'zbekistonda inson huquqlari: xalqaro standartlar va milliy qonunchilik uyg'unligi | 454 |
| Z.Y.Adilov | |
| Mahmud Az-Zamaxshariy ma'naviy merosining falsafiy tahlili | 459 |
| D.D.Boymirzayeva | |
| Bo'lajak ta'lif menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirish va uning tashkiliy-boshqarish mexanizmlarini modernizatsiyalash..... | 464 |
| I.I.Soliyev | |
| Oliy ta'lif muassasalarida institutsional mustaqillik tamoyillarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish vazifalari | 468 |
| Z.M.Mamatov, A.A.Ibragimov, O.M.Nazarov | |
| Quyon go'shti aminokislota tarkibini o'rganish..... | 472 |
| Z.M.Mamatov, A.A.Ibragimov, O.M.Nazarov | |
| Quyon qo'shimcha mahsulotlarining mineral tarkibini o'rganish..... | 477 |
| O.O.Isaqov | |
| Talabalarda ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik tashxisi | 483 |



УО'К: 378.014.15

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INSTITUTSIONAL MUSTAQILLIK TAMOYILLARINI
JORIY ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH VAZIFALARI**

**ЗАДАЧИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ РЕАЛИЗАЦИИ ПРИНЦИПОВ
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ НЕЗАВИСИМОСТИ В ВУЗАХ**

**TASKS OF IMPROVING MECHANISMS FOR IMPLEMENTING THE PRINCIPLES OF
INSTITUTIONAL INDEPENDENCE IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS**

Soliyev Ibodulloxon Ismatullayevich 
Namangan davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada institutSIONAL mustaqillik tamoyillarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish, institutSIONAL mustaqillik tamoyillarini joriy etish mexanizmlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish yo'llari, institutSIONAL mustaqillik tamoyillarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish vazifalari o`rganilgan. Shuningdek, oly ta'lIM muassasalarida institutSIONAL mustaqillik tamoyillarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish vazifalari tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье рассмотрены теоретические и методологические основы совершенствования механизмов внедрения принципов институциональной независимости, пути совершенствования механизмов внедрения принципов институциональной независимости на основе международных стандартов, задачи совершенствования механизмов внедрения принципов институциональной независимости. Изучаются институциональная независимость. Также анализируются актуальные вопросы совершенствования механизмов внедрения принципов институциональной независимости.

Abstract

In this article, the theoretical and methodological foundations of improving the mechanisms of introducing the principles of institutional independence, the ways of improving the mechanisms of introducing the principles of institutional independence based on international standards, the tasks of improving the mechanisms of introducing the principles of institutional independence are studied. Also, current issues of improving the mechanisms of introducing the principles of institutional independence are analyzed.

Kalit so'zlar: institutSIONAL mustaqillik, tamoyil, mexanizm, takomillashtirish, nazariy-metodologik asos, xalqaro standartlar, boshqaruvinchilik kompetensiyalari, akademik, ta'lIM determinantlari, marketing, menejment, integratsiya, prognozlashtirish, globallashuv, funksional, raqamlashtirilgan tizim.

Ключевые слова: институциональная независимость, принцип, механизм, совершенствование, теоретико-методологическая основа, международные стандарты, менеджмент, управленческие компетенции, академические, образовательные дeterminantы, маркетинг, менеджмент, интеграция, прогнозирование, глобализация, функционал, цифровая система.

Key words: institutional independence, principle, mechanism, improvement, theoretical-methodological basis, international standards, management, managerial competencies, academic, educational determinants, marketing, management, integration, forecasting, globalization, functional, digitized system.

KIRISH

XX asning oxirlarida universitetning ijtimoiy-madaniy ob'ekt sifatidagi maqsad va vazifalari haqida quyidagicha tasavvurlar shakllandi: shaxsni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish, madaniy va ilmiy merosni saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish, bilimlар hajmini kengaytirish, bilimlarni ommalashtirish. Sanab o'tilgan maqsadlarga erishish uchun universitet tomonidan bir qator vazifalar bajarilib, amalga oshiriladi: ilm olishga oid, tadqiqot (bilish va amaliy), desseminatsion (bilimlarni ta'lIM orqali tarqatish, konferensiylar, patentlar, nashrlar), konsaltingli ishlab chiqarish (bozorda ehtiyoj bo'lgan, ilm talab qiladigan tovar mahsulotini ishlab chiqarish).

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mamlakatimiz olimlaridan U.SH.Begimkulov, B.SH.Usmanov, M.F.Hakimova, M.A.Yuldashev, Z.K.Ismailova, Q.X.Abduraxmanov, G.N.Axunova, B.A.Begalov, A.SH.Bekmurodov, S.S.Gulyamov, Sh.N.Zaynudinov, M.A.Ikramov, N.K.Yo'ldoshev, I.U.Majidov, D.X.Nabiiev, R.I.Nurimbetov, B.X.Raximov, D.N.Raximova, R.A.Raxmanbayeva, M.X.Saidov, A.N.Samadov, T.SH.Shodiyev, Sh.D.Ergashxodjayeva, A.T.Yusupov, Sh.Qurbanov va boshqalar, MDH davlatlari olimlaridan N.V.Demidov, S.V.Sulima, S.A. Drujilov, K.I. Morozova, S.D.Reznik, S.M.Vasin, O.A.Sazikina, O.Bichkova, L.Verbitskaya, V.Kasevich, M.V.Niyazova, V.YE.Varavenko, Yoxan G.Vissema, F.Altbax, P.Y.Grishina, R.N.Abramov, E.V.Galajinskiy, A.O.Grudzinskiy, R.Dim, V.Konnov, M.Repina va boshqalarning ilmiy asarlarida institutsional mustaqillik tamoyillarini joriy etishga doir metodologik jihatlar o'rganilgan va tahlil qilingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

So'nggi yillarda nashr qilingan ilmiy adabiyot, xalqaroaktlar, Boloniya jarayoni hujjatlarida institutsional mustaqillik tamoyillarining mazmuniga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu bir qator holatlar bilan bog'liq.

Hozirda dunyoda 11 mingdan ortiqroq oliy o'quv yurtlari mavjud bo'lib, ularda YUNESKOning ma'lumotlariga ko'rta, 70 mln.ga yaqin talaba ta'lim oladi. Davatlarning universitetlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlashi o'sib bormoqda. Ba'zi mamlakatlarda davatlarning sarf qilayotgan mablag'lari ijtimoiy sohaga ajratilgan mablag'lari darajasiga etdi. Angliya ta'lim tizimi asosan (ayniqsa pedagogika, tabiiy-ilmiy sohalarda) davlat manbalari tomonidan moliyalashtiriladi. Ulkan mablag'larni sarf qilgan davlat ulardan foydalanishning samaradorligini nazorat qilishni xohlaydi. Angliyada universitetlar avtonomiysi keskin cheklab qo'yildi va hukumat, universitet hayotida bu yangilik edi. Budgetning chiqimgaoid hisobotini talab qildi, shuningdek talabalar soni va sohalar bo'yicha mablag'larni tartibga solishni, o'qitish va ilmiy tadqiqotlarning mazmun-mohiyatini nazorat qilishni kiritdi. Universitetlar faoliyati Qirollik inspeketsiyasi tomonidan ham to'g'ridan to'g'ri nazorat qilinadi.

Universitetlarga davlat o'z nuqtai nazaridan ustuvor bo'lgan tadqiqotlar yo'nalishlarini ko'rsatishga harakat qiladi. Bundan tashqari, oliy ta'lim olish uchun yo'llar keng ochiq bo'lgan hozirgi sharoitda yuqori sifat standartlarining pasayish xavfi paydo bo'ldi. Davlat o'zini jamiyat manfaatining himoyachisi deb hisoblagan bunday sharoitlar har doim ham universitetlar manfaatlariga mos kelmaydi.

Institutsional mutaqillik tamoyillarining mohiyati nimada? Avtonomiya bu – OTMlarning vakolatidagi masalalarni mustaqil hal qilishidir. Avtonomiya oliy ta'lim vazifalarini amalgaoshirish uchun zarur bo'lgan, institutsional mustaqillikning institutsional shaklini ifodalaydi. 1966 yilda Amerika universitetlari professorlari assotsiatsiyasining "Institutsional mustaqillik va vakolatlar haqidagi Deklaratsiyasi" dainstitutsional mustaqillikka quyidagicha ta'rif beriladi: "Institutsional mustaqillik – o'qituvchilar o'zlariga tegishli boshqa akademik majburiyatlarini to'laqonli bajargan taqdirda, tadqiqotlar olib borish va ularning natijalarini nashr etishda to'liq erkinlikka ega. Ammo pul ishlab topish maqsadida olib borilayotgan tadqiqotlar institut ma'muriyatining roziliqi bilan amalgaoshirilishi kerak. Akademik mas'uliyat – erkinlik konsepsiysi mas'uliyat konsepsiysi bilan to'ldirilishi kerak. Universitet o'qituvchisi fuqaro, professional assotsiatsiya a'zosi, institutning mansabdori hisoblanadi. Fuqaro sifatida o'zaki nutq so'zlaganda yoki yozma bayonot berganda o'qituvchi institut senzurasidan ozod bo'lishi kerak, lekin alohida nuqtai nazar alohida mas'uliyatni talab qilishini anglashi kerak. Professional assotsiatsiyaning a'zosi institutning mansabdor shaxsi sifatida tinlovchilar bu kasbga va institutga uning fikrlari bo'yicha baho berishlari mumkinligini yodda tutishi kerak. Shuning uchun o'qituvchi tartibgaaniq rivoja qilishi, o'zini tuta bilishi, boshqalarning fikrini hurmat qilishi va u bor kuchini ishga solib institutning rasmiy vakili emasligini tushuntirishi kerak".

Universitet avtonomiysi doktrinasini Jeneva universiteti doktori Berit Olson shakkantirdi: "Ideal mustaqil universitet: rahbarni tanlash erkinligiga; boshqaruv modelini tanlash erkinligiga; ilmiy tadqiqotlar ob'ektlarini tanlash erkinligiga; ijtimoiy buyurtmani tanlash erkinligiga; mulkka va uni boshqarish huquqiga; qo'shimcha manbalardan kelgan mablag'lardan foydalanish erkinligiga ega bo'lishi kerak".

Nemis olimi, Peterburg Fanlar Akademiyasining xorijiy muxbir a'zosi (1868) German Golmgols (1821-1894) Berlin universiteti rektori lavozimini qabul qilayotganda so'zlagan nutqidainstitutsional mustaqillik va universitetlarning mas'uliyatini birga qo'shish nazariyasini shakllantirdi. Bu nazariya Boloniya jarayonidainstitutsional mustaqillik tamoyilini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qildi. U o'z navbatida XIX asrda Evropadagi yangi turdag'i eng nufuzli OO'Yularidan biri bo'lgan Gumboldt modelining retsepsiyasiga asoslangan Berlin universitetining rivojlanishini belgilagan. Uning mohiyati shundan iboratki, universitet – bu ta'lif tizimining markazi, chunki bu erda ta'lif va tadqiqot birga qo'shib olib boriladi va shunday qilib, "ilm-fan asosi", "umumi madaniyat muassasasiga" aylanadi. Gumboldt asos solgan madaniyat universiteti o'z ligitimligini ta'lif olish va tadqiqot, jarayon va natija, tarix vaong, filologiya va tanqid, tarixiy bilimdonlik va estetik tajriba, institutsionallik va individuallik sintezini amalgaoshiruvchi madaniyatdan oladi.

Gumboldtning universitet modeli XXI lasrning oliy ta'lifi haqidagi Umumjahon deklaratsiyasida o'z ifodasini topdi (Parij, 1998 y. 9 okt. 2-bet). 1997-yilning noyabrida YUNESKOning Bosh konferensiyasida qabul qilingan oliy ta'lif muassasalari o'qituvchi kadrlarining maqomi haqidagi Tavsiyaga muvofiq oliy o'quv yurtlari:

- a) butun faoliyatlarida ilmiy hamda intellektual etika va talabchanlikni, o'zlarining asosiy vazifalarini saqlashlari va kengaytirishlari;
- b) o'zigaxos intellektual obro'ga ega bo'lib, to'liq mustaqillik va mas'uliyat bilan etikagaoid madaniy va ijtimoiy muammolar bo'yicha o'z fikrini bayon etish imkoniyatiga ega bo'lishi;
- v) universal tan olingen qadriyatlarni, jumladan tinchlik, adolatlilik, erkinlik, tenglik hamda hamfikrlikni himoya qilish va faol ommalashtirish uchun o'z intellektual imkoniyatlari va ma'naviy-axloqiy obro'sidan foydalanishi;
- g) huquq va majburiyatlar majmuasi sifatida qabul qilinuvchi to'liq institutsional mustaqillik vaavtonomiyadan foydalanish, shu bilan birga jamiyat oldida to'liq javobgar bo'lishi va hisob berishga burchli bo'lishi;
- d) mamlakatlar va jahon hamjamiatining farovonligiga ta'sir ko'rsatuvchi muammolarni aniqlash va hal qilishga ko'maklashishda ma'lum darajada rol o'ynashi kerak.

1920 yilda tashkil topgan "Universitetlarning Butunjahon xizmati" xalqaro nodavlat tashkiloti universitetlarning akademik erkinligi vaavtonomiyasi haqida Deklaratsiya qabul qildi(Lima, 1990 y.). Unga muvofiq institutsional mustaqillik vaavtonomiya – bu:

- o'quvchilar vaoliy ta'lif sektorida o'qiyotganlarning huquq va erkinliklari majmui: "akademik hamjamiat a'zosi tafakkur, vijdon, din va fikr erkinligi, shu bilan bir qatorda shaxsiy erkinlikka ega bo'lishi, bir joydan ikkinchi joyga havfsiz va erkin borishni amalgaoshiradi";
- universitet va boshqaoliy ta'lif institutlariga berib qo'yilgan vazifalarni bajarishning muhim shartlarni bajarish;
- davlatning universitet ishlariga aralashmasligi;
- akademik hamjamiat a'zolari tengligi;
- o'qitish erkinligi;
- talabalar uchun ta'lif olish, shu jumladan, taqdim qilingan fanlar bo'yicha ta'lif yo'naliшини tanlash va egallangan bilimlarni rasmiy tasdig'ini olish huquqi;
- ilmiy izlanishlar erkinligi;
- ta'lif imkoniyatlarini rivojlanirish erkinligi;
- akademik hamjamiatning barchaa'zolarini assotsiatsiya erkinligi huquqi, jumladan, ularning manfaatlarini himoya qiluvchi kasaba uyushmalarini tuzish;
- oliy ta'lif institutlarining yuksak darajadagi avtonomiyasi;
- oliy ta'lif institutlarining o'zini o'zi boshqarishi;
- akademik hamjamiatning barchaa'zolarini akademik va ma'muriy ishlarni boshqarishda ishtirok etishi;
- oliy ta'lif institutlarining barcha boshqaruv organlarini saylov yo'li bilan tayinlash;
- ta'lif siyosatini, tadqiqotlarni, ma'rifatchilik ishlarni boshqarish va belgilashga, ulargaaloqador bo'lgan faoliyatning boshqa turlarigaoid qarorlarni mustaqil qabul qilish".

XULOSA

Shunday qilib, universitetlarning Butunjahon xizmatining Lima deklaratsiyasidainstitutsional mustaqillik ta'lim liberalizmi ruhida talqin qilinadi va birinchi navbatda o'quvchilar vaoliy ta'lim sektori talabalarining huquq va erkinliklari majmuini, universitetlar vazifasini amalgaoshirish shart-sharoitlarini, demokratik o'zini o'zi boshqarishni ifodalaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Henkel M. (2007) Can academic autonomy survive in the knowledge society? A perspective from Britain // Higher Education Research & Development. Vol.26.№1.P.87–99.
2. Kielmansegg P. G. (1983) The university and democracy. LA: University of California Press.
3. Ortega y Gasset H. Universitet missiyasi. Minsk: BDU, 2005.P. 37.
4. Valentine, J. W., & Prater, M. (2011). Instructional, transformational, and managerial leadership and student achievement: High school principals make a difference. NASSP Bulletin, 0192636511404062.
5. Sandhya Khedekar. Educational Management, TSCER. III.1 Function of Education Management. 2007. P. 1.
6. Аврус А.И. История российских университетов. – Саров, 1998. –С.31-37
7. Болонский процесс в документах //http.rumi.ru
8. Василенко К. Образование под контролем. Законодатели встроили вузы в вертикаль власти//Время новостей.2006.15мая.№ 81. –С. 136
9. Деррида Ж. Университет глазами его питомцев // отечественные записки. 2003. № 6. с.96–103.